

---

## Tashabbusli byudjet: Qoshqayron mahallasidagi elektr ta'minoti yaxshilanmoqda

\* O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida aholini byudjet mablag'larini taqsimlash jarayoniga jalb etish hamda aholi va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida konstruktiv muloqot o'rnatish va ochiq maydonchalarni tashkil etish orqali ularning fuqarolik jamiyati hayotidagi ishtirokini faollashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu fuqarolar manfaati va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlari asosida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish vositasidir.

□ Rishton tumanida tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada yaxshilashga xizmat qilyapti. Mazkur loyihada o'z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo'l, ichimlik suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

\* «Qoshqayron» mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihada faol ishtirok etib, ko'plab tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rin olishiga erishishdi. Hududdagi aholini uzoq yillardan beri elektr ta'minoti muammosi qiynab kelardi. Bu esa aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lardi. Ushbu muammoga esa tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo'lmoqda.

???? Bugun qoshqayronliklar yangi yilni uzgacha shukuh bilan qarshi olishmoqda. Mahalla aholisini elektr ta'minlash yuzasidan ilgari surilgan tashabbusni amalga oshirish uchun 1 mlrd 200 million so'm mablag' ajratilib, yangi transformator hamda tayanch ustunlari o'rnatish ishlari boshlab yuborildi. Tarmoq tortish ishlari yakunlangandan so'ng, mazkur mahallaga transformatorlar ham o'rnatiladi. Olib borilgan ishlar natijasida hududdagi elektr ta'minoti yaxshilanib, xonadonlarga sifatli elektr energiyasi uzatiladi.

???? - "Tashabbusli byudjet" loyihasi aholimizni uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan ijtimoiy muammolarni hal etishda hamjihatlik bilan harakat qilishni, jamoaviy qarorlar qabul qilishni, birgalikda harakat qilib maqsadga erishish uchun faol ishtirok etish va davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan yanada samaraliroq foydalanishni o'rgatdi, deydi mahalla faolaridan biri Zohidjon Zohidov.

Loyiha doirasida belgilangan bunyodkorlik ishlari mahallada davom etmoqda.

2022-12-24 16:16:47